

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“Bank ishi” kafedrası

**“BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH VA BANK
XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 11-oktabr



Samarqand - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“Bank ishi” kafedrası

**“BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH VA BANK
XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2025-yil 11-oktabr

Samarqand - 2025

34	Хамидова Ф.А.	Особенности финансового мониторинга в системе под/фт/фпрому.....	45
III SHO‘BA. INNOVATSION IQTISODIYOT ORQALI IQTISODIY, IJTIMOYIY VA XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI			
35	Шодиева Г.М. Абдуллаева Д.Б.	Совершенствование механизмов строительных услуг в условиях цифровизации экономики.....	49
36	Shanazarov F.Sh.	Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	51
37	Шодиева Г.М. Абдуллаева Д.Б.	Формирование конкурентного рынка строительных услуг в условиях экономической трансформации.....	54
38	Shanazarov F.Sh.	Ijtimoiy tibbiy xizmatlar tizimini rivojlantirishning tashkiy-iqtisodiy mexanizmlari.....	57
39	Niyozov Z. D. Ergasheva I.	Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishida virtual olamga ransformatsiyalash istiqbollari.....	59
40	Abdulahobov Sp. X. Ernazarova Sh. N.	O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining kredit siyosati va risklarning oldini olish.....	62
41	Narzullayeva O. Eshboyev M.	Islom moliyasida musharaka tamoyili.....	65
42	Komilova M. Sobirov I. X.	Daromad va xarajatlarni byudjetlashtirish masalalari...	69
43	Abdusaidov S.J.	Mamlakatimizdagi sug‘urta bozorining bugungi holati...	72
44	Julliboy o‘g‘li O. Abduvaliyev B.	Jamiyatning turli sohalarida qayta ishlab chiqarishning o‘rini.....	76
45	Jo‘rayev B. N.	Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash masalalari.....	79
46	Xudoykulov X. Z.	Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalqaro investitsion munosabatlar rivojlanishining ahamiyati.....	83
47	Dosekeev J.I.	Qoraqalpog‘iston respublikasida turizm xizmatlar sohasi rivojlanishining ekonometrik tahlili.....	87
48	Kuldoshev L.Sh. Sharifov B. Y.	Xizmat ko‘rsatish sohasining respublika iqtisodiyotidagi ulushi va ahamiyati.....	91
49	Tursunov F.M. Musurmonov H.N.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash ahamiyati.....	96
50	Назаров У.О.	Основные тенденции развития мирового индустрии туризма и гостеприимства.....	102
51	Худойкулов Х.З.	Тижорат банкларининг хизмат турларини ривожлантиришни такомиллаштириш.....	107
52	Жулибой ўғли О. Азамов О.	Экология харажатлари ҳисобини юритишнинг хориж тажрибаси ва уни мамлакатимизда қўллаш истикболлари.....	112
53	Tursunov F. M. Musoyeva Sh.O.	O‘zbekiston respublikasida bank kartalarini takomillashtirishning ahamiyatli jihatlari.....	118
54	Худойбердиев А.У.	Оценка спроса продуктов питания по тенденции временных рядов.....	123
55	Ниёзов З.Д. Мақсудов О.Ш.	Имтиёзли кредитлар “бир маҳалла – бир маҳсулот” тамоилини амалга ошириш учун.....	126
56	Qarshiboyev X.Q.	Correlation and regression analysis method for predicting	132

государственными органами, застройщиками и сервисными компаниями. Одновременно с этим наблюдается **улучшение инвестиционного климата** - ускорение согласований и снижение транзакционных издержек создают благоприятные условия для привлечения частного капитала и международных партнёров в сферу строительных услуг.

Немаловажным результатом внедрения данного подхода является **ускоренное развитие цифровых технологий**, в частности национальной платформы **e-Construction**, которая становится ядром цифровой экосистемы строительных услуг. Это позволяет автоматизировать ключевые процессы проектирования, контроля и приёмки объектов, обеспечивая высокую точность, прозрачность и подотчётность.

Кроме того, переход к цифровому регулированию способствует **формированию конкурентной среды**, в которой повышаются требования к качеству и оперативности предоставляемых строительных услуг. В результате рынок становится более открытым, клиентоориентированным и устойчивым, что укрепляет доверие инвесторов и повышает общий уровень эффективности строительного сектора.

В перспективе необходимо дальнейшее совершенствование нормативно-правовой базы, развитие единого национального портала строительных услуг и интеграция с другими государственными системами управления проектами (“умный город”, кадастр, архитектура). Всё это позволит обеспечить устойчивое развитие строительных услуг как стратегического драйвера инновационной и региональной модернизации экономики Узбекистана.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5963 от 13 марта 2020 г. «*О дополнительных мерах по углублению реформ в строительной отрасли Республики Узбекистан*».
2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 13 сентября 2023 г. «*О Стратегии развития Узбекистана до 2030 года*».
3. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. *Инвестиции и строительство. Статистический сборник*. — Ташкент, 2024.

IJTIMOIIY XIZMATLAR KO‘RSATISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shanazarov F.Sh.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi
ijtimoiy ximoya milliy agentligi
Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun
tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish
boshqarmasi yetakchi mutaxassisi*

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularni takomillashtirish yo‘llari hamda raqamli texnologiyalar asosida ijtimoiy himoya tizimini isloh qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, aholining turmush sifati va ijtimoiy adolat darajasini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy himoya, boshqaruv mexanizmi, raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuv, mahalla instituti, inson kapitali.

Kirish. Hozirgi global iqtisodiy sharoitda ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish har bir mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayon aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy adolatni ta‘minlash va inson kapitali salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlarning qamrovini kengaytirish, ularning sifatini oshirish va fuqarolarning ehtiyojlariga tezkor javob beradigan samarali mexanizmlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda keyingi yillarda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, kam ta‘minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash hamda aholi turmush sifatiga ta‘sir etuvchi xizmatlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoit yaratish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu borada davlatning ijtimoiy funksiyalari tobora kengayib, aholi ehtiyojlariga yaqin bo‘lgan yangi boshqaruv va xizmat ko‘rsatish modellari shakllanmoqda.

Ayniqsa, “Inson qadri uchun” tamoyili asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorattizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni va “Hamroh” dasturi ijtimoiy xizmatlarning yangi, fuqaroga yo‘naltirilgan modelini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hujjatlar va dasturlar orqali ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishning raqamli, integratsiyalashgan va adolatli tizimini barpo etishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirish nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga, balki aholi turmush darajasini barqaror yaxshilashga, kambag‘allikni qisqartirishga va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan, ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishning ilg‘or mexanizmlarini tadbiq etish, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish va mahalliy darajada fuqarolar ehtiyojlarini hisobga oluvchi yangi boshqaruv modellarini shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism. Ijtimoiy xizmatlar tizimi mamlakat ijtimoiy siyosatining amaliy ifodasi bo‘lib, aholining turmush darajasi, ijtimoiy tenglik va inson kapitali rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu tizimning samaradorligi fuqarolarning davlatga ishonchi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, ijtimoiy xizmatlarning mazmun-mohiyatini qayta ko‘rib

chiqish, ularni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchidan, **institutsional islohotlar** ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Bunda davlat, nodavlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yurituvchi ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi markazlar aholi ehtiyojlarini tezkor qondirish, xizmat turlarini diversifikatsiya qilish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Ikkinchidan, **ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish** jarayoni tizimni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida xizmatlarni "bir darcha" orqali taqdim etish fuqarolar uchun qulaylik yaratib, vaqt va resurslar tejamkorligini ta'minlaydi. Masalan, **"Ijtimoiy himoya yagona reestri"** orqali aholining ehtiyojmand qatlamlari to'g'risidagi ma'lumotlar yagona platformada to'planib, yordam ko'rsatish jarayoni avtomatlashtirildi. Bu esa ijtimoiy yordam taqsimotida shaffoflikni ta'minlab, inson omilining ta'sirini kamaytirdi.

Uchinchidan, **ijtimoiy xizmatlar sifatini baholash** tizimini takomillashtirish zarur. Xizmat ko'rsatish natijadorligini aniqlash uchun xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan indikatorlar - qoniqish darajasi, qamrov koeffitsiyenti, xizmat vaqti va arzonlik indeksi kabi mezonlar milliy tizimga joriy etilmoqda. Bu yechimlar orqali xizmat ko'rsatishning samaradorligi va aholi uchun foydali ta'siri o'lchanadi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy xizmatlarning raqamli platformalar orqali ko'rsatilishi tendensiyasi kuchaymoqda. 2024 yilda **"Hamroh"** dasturi doirasida 1,2 milliondan ortiq fuqaroga elektron shaklda moddiy va huquqiy yordam ko'rsatildi. Bu raqamli yechimlar orqali xizmat ko'rsatish qamrovi 30 foizga oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, "E-social services" tizimida fuqarolar onlayn murojaat, navbatni bron qilish, hujjat yuritish va natijalarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Innovatsion yondashuvlar ijtimoiy sohani faqat davlat funksiyasi sifatida emas, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida ko'rish imkonini bermoqda. Chunki zamonaviy ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasi (masalan, bolalar bog'chalari, rehabilitatsiya markazlari, yoshlar hamda keksalar uchun xizmat ko'rsatish nuqtalari) yangi ish o'rinlarini yaratadi, mahalliy byudjet daromadlarini oshiradi va ijtimoiy innovatsiyalar rivojiga turtki bo'ladi.

Mahalla instituti ijtimoiy xizmatlar tizimining "birlamchi bo'g'ini" hisoblanadi. Chunki u aholining ehtiyojini bevosita kuzatish va joylardagi muammolarni tezkor hal etish imkoniyatiga ega. 2023 yilda joriy etilgan **"Mahallabay ishlash tizimi"** ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qildi, chunki har bir hududda ehtiyojmand fuqarolar elektron ro'yxatga olinib, ular bilan alohida ishlash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, ijtimoiy sohada faoliyat yurituvchi kadrlar — ijtimoiy ishchilar, psixologlar va maslaxatchilarning malakasini oshirish muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim dasturlari, qayta tayyorlash kurslari va xalqaro tajriba almashinuvi asosida kadrlar salohiyatini oshirish orqali xizmat ko'rsatishning sifati va insonparvarlik darajasi sezilarli yaxshilanadi.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirishda quyidagi

choralar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ijtimoiy xizmatlar bozorida raqobat muhitini rivojlantirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida yangi innovatsion markazlar tashkil etish;
- xizmatlar samaradorligini baholovchi “ijtimoiy KPI indeksi”ni joriy etish;
- aholining ijtimoiy ta’minotga qoniqish darajasini sotsiologik tadqiqotlar orqali muntazam o’rganib borish.

Ushbu choralar ijtimoiy xizmatlar tizimini inson manfaatiga yo’naltirilgan, raqamli, innovatsion va adolatli tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son farmoni. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030”. Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi
3. “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni..
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori №377 “Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2023.
5. UNDP (2024). *Social Protection and Digital Inclusion in Central Asia*.
6. World Bank (2024). *Modern Social Service Delivery Systems: Experience of Uzbekistan and Kazakhsta*

ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНОГО РЫНКА СТРОИТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Шадиева Гулнора Мардиевна –

Самаркандский институт экономики и сервиса

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0001-7078-8815>

Tel: 90-968 51-22 gulnora.shodiyeva@mail.ru

Абдуллаева Дилафруз Бахриллоевна

Экономист частная фирма

“Шохруҳ Бинокор Курувчи”

Аннотация. В тезисе рассматриваются особенности развития **строительных услуг** Республики Узбекистан в условиях формирования рыночной модели управления. Показано, что строительные услуги становятся самостоятельным сегментом экономики, интегрирующим инвестиционные, инженерные, проектные и инфраструктурные процессы. Анализируются ключевые направления реформ - цифровизация, либерализация регулирования, развитие государственно-частного партнёрства и внедрение инноваций. Обосновывается, что эффективное развитие строительных услуг способствует структурной модернизации экономики и росту региональной конкурентоспособности.

Ключевые слова: строительные услуги, рыночная модель управления, цифровизация, инвестиции, ГЧП, эффективность, Узбекистан.